

## ZAMONAVIY TA'LIMIY KONSEPSIYALAR

**Qobilova Madina Sobir qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi

2-kurs talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim konsepsiyalari, ta’limning dolzarb muammolari, ta’limning bugungi kundagi islohotlari haqida yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta’limiy konsepsiylar, davlat ta’lim standarti, ta’lim qamrovi, “Milliy o‘quv dasturi”.

Bugungi kunda turli ta’lim konsepsiyalari mavjud. Ta’lim mazmuni kontseptsiyasidan biri bu fanlarning pedagogik jihatdan moslashtirilgan asoslari sifatida qabul qiladi. Maktabda shaxsiy xususiyatlarni tanlashni erkinligini, odamlarga adolatli munosabatda bo‘lish, odamlarga nisbatan adolatli munosabatni ajratib olib bordi. Aslida, shaxs bu erda ishlab chiqarish omili sifatida harakat qiladi. Boshqa bir konsepsiya ta’lim mazmunini o‘quvchi o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida qaraydi. Bu konsepsiya mualliflari bilim va malakalarni egallab olish odamga zamonaviy jamiyatda mos ravishda hayot kechirishga imkon beradi deb hisoblaydilar. Odamdan faqatgina u bilishi va bajara olishini talab etish yetarli. Bunday holatda ta’limga talablar ham quyidagicha bo‘ladi: o‘sib kelayotgan avlodga ona tili. matematika, fizika va boshqa fanlar bo‘yicha bilim va malakalar berish zarur. Hozirgi zamon sharoitlarida rivojlanishi uchun bu yetarli emas. Jamiyatning o‘quvchilardan faqat ma’lum o‘quv fanlari mazmunini emas, balki ularda iroda kuchi, o‘z harakatlari uchun, jamiyat va mamlakat taqdiri uchun mas’uliyatli,

atrof-muhitni himoya qilish; millatchilik va diniy aqidaparastlikka yo‘l qo‘ymaslik va shu kabi sifatlarni rivojlantirishni talab etadi.

Hozirgi davrda ta’limning dolzarb muammolarini:

1. Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, yangi pedagogic texnologiyalarni ishlab chiqish va rivojlantirish.
2. Lotin alifbosi asosida o‘zbek tiliga o‘tish.
3. Mukammal o‘quv darsliklarini yaratish.
4. Ta’limning texnika vositalari. O‘quv-moddiy baza, kompyuter bilan ta’minalash, ta’limda internet tizimini joriy etish.
5. Malakali ilmiy va pedagogic hodimlar tayyorlash.
6. Ta’lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining mavqeini oshirish, TV va radioning ta’lim dasturlari intelektuallashuvini ta’minalash.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi islohatlar.

O‘zbekiston Respublikasida uzlusiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minalovchi, shaxs, jamiyat va davlatning, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo‘lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev parlamentga murojaatida 2021-yilda ta’lim tizimida kutilayotgan o‘zgarishlar haqida ma’lumot berdi.

Maktabgacha ta’lim.

2021 yilda maktabgacha ta’lim qamrovi 65 foizga, 2023 yil oxirida esa 75 foizga yetkaziladi. 600 milliard so‘m subsidiya berilib, 2 mingta xususiy bog‘cha ochiladi; xususiy sektor ulushi 25 foizga yetadi. 6 yoshli bolalarni maktabga majburiy tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi. 2021 yilda 6 yoshli bolalarning 82 foizi (560 ming nafar) maktabga bepul tayyorlovga jalb etiladi.

Maktablar

Bolaning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini o‘sirishga mo‘ljallangan yangi darsliklar tayyorlash boshlanadi. Boshlang‘ich sinflarda DTS o‘rniga bolaga ortiqcha

yuklama bermaydigan «Milliy o‘quv dasturi» joriy etiladi. Boshqa tumandagi olis mактабга borib, dars beradigan o‘qituvchilar oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa 100 foiz ustama to‘lanadi. Hududlarda xususiy maktablar faoliyatini rag‘batlantirish uchun budgetdan subsidiyalar ajratiladi. 10 prezident mактabi; kimyo-biologiya, matematika va ATga ixtisoslashgan 197ta mакtab ochiladi.

### Oliy ta’lim

OTMlarda davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshiriladi. Xotin-qizlar uchun grantlar soni 2 barobarga oshirilib, 2 mingtaga yetkaziladi. A’lo o‘qiyotgan ehtiyojmand qizlar uchun stipendiyalar ta’sis etiladi. Davlat kadrlar tayyorlash bo‘yicha xususiy OTMlarga ham buyurtma bera boshlaydi. 30 ta OTMga o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi beriladi. Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida yoshlар masalasida bildirgan fikrlariga alohida to‘xtab o‘tsak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renesans davrining drayverlari aynan yoshlар bo‘lishi kerak, — deganlar. Shu sababli yoshlарimiz yangidan-yangi, katta-katta marralar sari ruhlantirishi hamda o‘z oldiga maqsad qo‘yishda eng baland cho‘qqini ko‘zlashi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ-637.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillahstirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-4884-sonli qarori.
3. Tolipova J.O, Xodjaev B.X. “Pedagogikaning konseptual asoslari”. Toshkent-2014 y.